

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova Dual ta'lim tizimi oliy ta'limda: xalqaro tajribalar, samaradorlik va O'zbekiston konteksti	6
Л.К.Орынбаева, У.С.Марчибаева, Е.К.Сейсенбеков Актуальность программ повышения квалификации в формировании компетентностей педагога Казахстана	12
Н.Ю.Костюнина, С.У.Бичурина Неблагополучная семья как фактор девиантной виктимности.....	17
O.N.Fozilova, Sh.S.Rayimova Bola shaxsi rivojlanishida muloqotning o'rni	22
A.S.Toshmatov The role of self-efficacy in teaching foreign languages to improve writing skills.....	25
G.Sh.Latipova Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari	31
Sh.D.Iskanderova Fundamentals of pedagogical training: instructional strategies for early learners	38
I.M.Saidov Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishning tamoyillari hamda uning tarkibiy qismlari.....	43
Н.Ш.Абдуллаева Characteristics and evolution of middle English language.....	48
M.A.G'ofurova Bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlantirish texnologiyalari.....	54
N.F.Yigitaliyeva Pediatriya ishi yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda simulyatsiyalar orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi	59
T.T.Shoymardonov Oliy ta'lim pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish tajribasi: tahliliy yondashuv	63
S.M.Abdullayev Fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari.....	69
D.O.Djalilova Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentsiyasini rivojlantirishning metodologik jihatlarini	73
D.I.Gulamova Evfemizmlarning o'rganilish tarixi.....	77
B.T.Jumayeva Gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	81
A.R.Saydullayeva, K.L.Ro'ziyeva Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari.....	81
A.R.Saydullayeva, M.E.Nabiyeva Zararli odatlarga qarshi pedagogik immunitet tushunchasi va uning ahamiyati.	89
G'.R.Israilov Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli	93
A.X.Karimov Oliy tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning nazariy jihatlarini	97
M.H.Насритдинова Инновационная артпедагогика как ресурс развития художественно-творческой компетентности у будущих педагогов в цифровую эпоху.....	100



UO'K: 378.014.15

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING
ANTIKORRUPSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TIZIMLI-FUNKSIONAL
MODELI****СИСТЕМНО-ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ
АНТИКОРРУПЦИОННОЙ КOMPETENTНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ
ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА****A SYSTEMIC-FUNCTIONAL MODEL FOR DEVELOPING ANTI-CORRUPTION
COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH****Israilov G'olib Rashidovich** 

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak pedagoglarning antikorrupsiyon kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Unda samarali metodlar va tizimli-funksional model asosida kompetentlikni shakllantirish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimida korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarni ilgari suradi.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования антикоррупционной компетентности будущих педагогов на основе интегративного подхода. Анализируются эффективные методы и системно-функциональная модель подготовки. Результаты направлены на внедрение инновационных подходов в профилактике коррупции в образовании.

Abstract

The article explores the theoretical and practical aspects of developing anti-corruption competence in future teachers through an integrative approach. It analyzes effective methods and a system-functional model for competence formation. The findings propose innovative strategies to prevent corruption in the educational system.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, texnologiya, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash, antikorrupsiyon, refleksivlik, loyiha texnologiyalari.

Ключевые слова: интегративный подход, технология, компетентность, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактический, форма, метод, инструмент, оценка, противодействие коррупции, рефлексивность, проектные технологии.

Key words: integrative approach, technology, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tool, evaluation, anti-corruption, reflexivity, project technologies.

KIRISH

Bugungi kunda pedagogik jarayonni modellashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu orqali pedagogik jarayonni tashkil etishning mohiyati, qilinishi kerak bo'lgan ishlarning ketma-ketligini ifodalash mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham pedagogik tadqiqotlarda qo'yilgan maqsadga erishishning muhim vositalaridan biri modellashtirish sifatida ko'riladi. Modellashtirish asosida tadqiq etilayotgan obyekt modeli ishlab chiqiladi. Model ma'lum bir obyekt haqida yangi axborotlar olish imkonini beruvchi, tadqiqot premetini ilmiy jihatdan aks ettiruvchi fikriy tasavvur yoki uning moddiy ko'rinishga ega tizimidir. Bugungi kunda esa "model" tushunchasi shunchalik keng qo'llanilmoqdaki, u hatto olam haqidagi istalgan bilimlar va tasavvurlarga ham tegishli bo'lib qolmoqda. Masalan, zamonaviy nuqtai nazardan istalgan faoliyatning maqsadi faoliyat natijasini aks ettiruvchi model sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Korrupsiyaga qarshi kurashning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, jamiyatda mazkur illatga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsiyon kompetentligini rivojlantirish kabi

PEDAGOGIKA

masalalar K.Darden, M.Johanson, P.Mauro, L.Pelligrini, S.Tihonen, S.Vidmalm, R.Uvilim, K.Elliot, K.V.Kabanov, S.Y.Kabashov, T.L.Kozlov, O.N.Kostyuk, G.Pechenkin, K.V.Chashin, X.Meliyev, K.Tojiboyev, M.Sh.Usmonov, I.Ismoilov, M.H.Musayev, E.H.Norbo'tayev, Y.S.Po'latov, A.O.Rasulov, M.X.Rustamboyev kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talab etilayotgan pedagogik tizimni modellashtirishda quyidagi funksiyalarning bajarilishi ko'zda tutildi:

- metodologik ta'minot funksiyasi. Mazkur funksiyani amalga oshirish meyoriy-huquqiy hujjatlar va integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilab beruvchi ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq;
- meyoriy-huquqiy ta'minot funksiyasi. Mazkur funksiya integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga doir faoliyatga jalb etish tamoyillari, mazmuni, vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari, diagnostik vositalarini aniqlashni taqozo etadi;
- metodik ta'minot funksiyasi. integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning metodik (mazmuni, shakl, metod va vositalari) shart-sharoitlarini aniqlashtirishni talab etadi;
- amaliy-tatbiqiy (empirik) funksiya. Mazkur funksiya qator vazifalarni hal etishga imkon beradi: integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga doir bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan bog'liqlikda qadriyatga yo'naltirilgan ustanovka va barqaror motivlarni shakllantirish, tadqiq etilayotgan jarayonni tahlil etish va muayyan tuzatishlar kiritish; natijalarni baholash va tahlil etish va h.k.

Tadqiq etilayotgan jarayonni modellashtirishning nazariy-metodologik asosi sifatida quyidagi qoidalarga tayanildi:

- tizimli, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv yondashuvlar;
- pedagogik loyihalash nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini modellashtirish;
- didaktik va metodik ta'minotni yaratishning nazariy asoslari;
- aksiologik yo'nalganlikni shakllantirish va ijtimoiy tarbiya konsepsiyasi;
- antikorrupsion munosabatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli maqsadga yo'naltirilgan, nazariy-metodologik, mazmunga doir, tashkiliy va natijaviylik komponentlarini o'zida aks ettirdi.

Maqsadga yo'naltirilgan blok integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish tizimining boshqa bloklari uchun yetakchi rol o'ynaydi. Mazkur blok mazmunini aniqlashtirish asosida tadqiqot sohasiga doir ta'lim standarti va ijtimoiy buyurtma, meyoriy-huquqiy asoslar belgilab olindi. Shuningdek, modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy buyurtma sifatida yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti, shuningdek, oliy ta'limda Halollik tarbiyasini rivojlantirishning meyoriy-huquqiy hujjatlari orqali belgilab olindi.

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashga doir ta'lim standartlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili oliy ta'lim tizimida integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy-pedagogik ishlarni maqbullashtirish lozimligini ko'rsatdi.

Modelni ishlab chiqish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutildi:

- 1) integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqishga doir metodologik yondashuvlarni aniqlashtirish;
- 2) modelning blok-tuzilmasini aniqlashtirish;
- 3) model blok va elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni ochib berish;
- 4) modelning blok-tuzilmasi va elementlariga tavsif berish.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning yuqorida ko'rsatilgan maqsad va vazifalari kompleks metodologik yondashuvlar bilan bog'liq. Metodologik yondashuv tushunchasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. N.Stefanov metodologik yondashuvni faoliyatning umumiy maqsadi va strategiyasini aniqlab beruvchi tamoyillar yig'indisi (tizimi) sifatida ta'riflaydi. Boshqa bir olim I.V.Blauberg metodologik yondashuvni o'rganish obyekti (obyektni aniqlash usuli), tadqiqotning umumiy strategiyasiga rahbarlikni amalga oshirish tamoyili nuqtai nazaridan tadqiqotning qat'iy metodologik yo'nalganligi sifatida talqin qilishgan.

Pedagog olim N.Muslimov metodologik yondashuvni pedagogika metodologiyasidan farqlash lozimligini alohida ta'kidlab o'tadi. Olimning fikricha, metodologik yondashuv ko'proq gnoseologiyaga asoslanadi. Bu hali pedagogika fani metodologiyasini ifoda etmaydi: "Metodologiya "bilimlar yoki bilish to'g'risidagi bilimlar" emas, balki "ma'lum sohadagi faoliyatni amalga oshirish, uning metod hamda vositalari to'g'risidagi ilmiy bilimlar (nazariy tizim)" sifatida qaralishi lozim".

Pedagog olimlar N.Muslimov va N.Yakovlevlarining nuqtayi nazarini qo'llab-quvvatlagan holda shuni aytish mumkinki, yondashuv metoddan o'zining quyidagi jihatlari bilan farqlanadi: 1) yondashuv ko'proq umumiy va kamroq aniqlikka ega; 2) u o'zida ko'proq formal nazariya va konsepsiyalar, umumiy tamoyillar va yo'nalishlarni ifoda etadi; 3) har bir yondashuvga bir emas, bir qancha metodlar muvofiq kelishi mumkin.

"Yondashuv" tushunchasini umume'tirof etilgan mohiyatida kimgadir ta'sir ko'rsatish, nimanidar o'rganish uchun foydalaniladigan yo'l, usullar yig'indisi o'z ifodasini topadi. Tadqiqotga doir yondashuv tadqiqotchining asosiy tamoyili, nuqtai nazarini ifoda etadi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning samarali yondashuvlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tizimli-jarayonli yondashuv tadqiqotning umumiy asosi sifatida ilmiy izlanish mantig'ini aks ettiruvchi muammoni qo'yish, asosiy va lokal maqsadlarni aniqlashtirish, qarama-qarshi fikrlar va nuqtai nazarlarni aynanlashtiruvchi qoidalar bilan tavsiflanadi hamda integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqishni ta'minlaydi;

- aksiologik va refleksiv yondashuvlar strategiyaning nazariy-metodologik asosi sifatida nazariy tadqiqot yo'nalishlarini aniqlab beradi, uning umumiy ko'rinishini aks ettiradi. Mazkur yondashuvlar qadriyatlar tizimini aniqlash hamda integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish tizimida qayta aloqani ta'minlashga imkon beradi;

- shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv qo'yilgan maqsadga erishish uchun professor-o'qituvchi va talabalar faoliyatini tashkil etish mexanizmi va tartib-qoidalarini aniqlash, o'rganilayotgan hodisadan amaliy foydalanishning o'ziga xosliklarini ochib berishga yo'naltirilgan amaliy-yo'naltirilgan taktika sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Tizimning maqsadga yo'nalganligi ma'lum natijalarga erishish bilan belgilanadi. Maqsadni aniqlashtirish ishlab chiqilayotgan tizim javob berishi lozim bo'lgan bir qator savollarga e'tibor qaratish orqali amalga oshiriladi. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish muammosini muvaffaqiyatli hal etish uchun mazkur jarayonning yakuniy natijasi aniq aks ettirilishi lozim. Modelning maqsadi kompetensiyaviy yondashuv asosida integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish tarzida aniqlashtirildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Байболов К., Сыдыкова Л., Сыдыкова А. Коррупция. Взятничество. Ответственность (вопросы теории и практики). –Бишкек:КРСУ, 1999.–120 с.
2. Бляхер Л.Е., Пегин Н.А. Коррупция как политическая проблема: кто, как и зачем сражается с коррупцией в России // Полития. – 2012. – № 4. – 26 – 29 с.
3. Исмоилов И. Жинойтчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. -Т., 2005. –62-63 б.
4. Кабашов С.Ю. Урегулирование конфликта интересов и противодействие коррупции на государственной и муниципальной службе. – М.: Инфра-М, 2012.
5. Мелиев Х. Коррупцияга қарши кураш муаммолари: миллий ва халқаро тажриба. Халқаро илмий-амалий семинар материаллари 2009 йил 20-21 октябрь. –Т.: «Chashmaprint», 2010. Б.139.

PEDAGOGIKA

6. Усмонов М.Ш. Халқаро ҳуқуқ нормалари ва миллий қонунчиликда коррупцияга қарши кураш масалалари. Коррупцияга қарши кураш муаммолари: миллий ва халқаро тажриба. Халқаро илмий-амалий семинар материаллари 2009 йил 20-21 октябрь. –Т.: «CHASHMA PRINT», 2010. –76-77 б.